



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLLIK RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.

Karimova Muslimaxon Xurshidbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19663773>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 18-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 20-aprel 2026 yil

KEYWORDS

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, kreditlash tizimi, foiz stavkalari, moliyaviy resurslar, garov ta'minoti, moliyaviy savodxonlik, investitsiya faolligi, bandlik, hududiy nomutanosiblik, iqtisodiy o'sish.

ABSTRACT

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida mavjud muammolar hamda ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, kreditlash tizimidagi kamchiliklar, foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamda moliyaviy savodxonlik darajasi o'rganildi. Shuningdek, ushbu omillarning bandlik, investitsiya faolligi, hududiy rivojlanish va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Shu asosda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin egallaydi. Chunki aynan ushbu sektor orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojlanadi. Shu sababli ham kichik biznesning barqaror faoliyati umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan va tezkor rivojlanadigan segmenti hisoblanib, u bozor talablariga tez javob bera olish, innovatsiyalarni joriy etish hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar va global noaniqlik sharoitida ushbu sektor iqtisodiyotning "stabilizatori" sifatida xizmat qilishi mumkin. Jahon bank ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotining tayanchi bo'lib, barcha korxonalar sonining qariyb 90 foizini tashkil etadi hamda global bandlikning yarmidan ko'prog'ini ta'minlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu sektor iqtisodiy diversifikatsiya, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda markaziy o'rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari faoliyatida qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular ushbu sektorning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta'minoti bilan bog'liq talablarning murakkabligi, moliyaviy savodxonlik

darajasining yetarli emasligi hamda institutsional va byurokratik to'siqlar kichik biznes rivojlanishining asosiy muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, infratuzilma bilan bog'liq kamchiliklar, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish nomutanosibligi va biznes yuritish muhitining yetarli darajada erkin emasligi ham kichik biznes faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar

natijasida kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi pasayib, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashishi mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yetakchi o'rin egallab, bandlikni ta'minlash, daromadlarni oshirish va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mazkur sektor rivojlanishida mavjud muammolar uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini cheklab qo'ymoqda. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

II. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi hamda aholi daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu sektor faoliyati davomida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda va ular tadbirkorlik subyektlarining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Avvalo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari uchun eng dolzarb muammolardan biri-moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatining cheklanganligidir. Kredit olish jarayonida garov ta'minotining yetishmasligi, hujjatlarning murakkabligi hamda kreditlash tartib-taomillarining uzoq davom etishi tadbirkorlar uchun jiddiy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada ular yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki investitsiya kiritish imkoniyatidan cheklanmoqda. Mazkur holatni yanada murakkablashtiruvchi omillardan biri — moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligidir. Ko'plab tadbirkorlar biznes-reja tuzish, moliyaviy hisobotlarni yuritish hamda kredit hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emas. Bu esa ularning nafaqat kredit olish, balki mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham cheklaydi. Shu bilan birga, huquqiy va byurokratik to'siqlar ham kichik biznes rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ortiqcha ruxsatnomalar, litsenziyalar va murakkab ro'yxatdan o'tish tartiblari tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishda qo'shimcha vaqt hamda mablag' talab qiladi. Bu esa kichik biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlarini cheklab, ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Biroq, ushbu muammolar ichida moliyaviy omillar alohida o'rin egallaydi. Xususan, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kichik biznes subyektlari uchun asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Amaliyotda kredit foizlari odatda 18 foizdan 36 foizgacha bo'lgan diapazonda shakllanib, ayrim hollarda jarima foizlari 60 foizgacha yetadi. Jumladan, Hamkorbank tomonidan ajratiladigan kreditlarda foiz stavkalari muddatga qarab 22-26 foiz oralig'ida belgilanadi, bu esa kredit muddati uzaygan sari moliyaviy yukning ortib borishini anglatadi.

Natijada, yuqori foiz stavkalari tadbirkorlik subyektlarining daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, foydaning sezilarli qismini foiz to'lovlariga

yo'naltirishga majbur qiladi. Bu esa investitsiya imkoniyatlarini qisqartirib, ishlab chiqarish tannarxining oshishiga hamda mahsulot narxining qimmatlashishiga olib keladi. Oqibatda kichik biznes subyektlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi pasayadi. Shuningdek, kreditlash tizimida garov ta'minoti va kafillik talablarining yuqoriligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ko'plab tadbirkorlar yetarli qiymatga ega aktivlarga ega emasligi sababli kredit olish imkoniyatidan cheklanadi, bu esa yangi biznes tashabbuslarini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, infratuzilma bilan bog'liq muammolar - xususan, elektr energiyasi uzilishlari, transport va logistika tizimidagi kamchiliklar - ayniqsa hududlarda kichik biznes rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasining nomutanosibligini yanada kuchaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan omillar yig'indisi kichik biznes subyektlari faoliyatining sustlashuviga olib keladi. Bu esa, avvalo, bandlik darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Aholi daromadlarining qisqarishi esa ichki iste'mol talabining kamayishiga olib kelib, umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kichik biznes faoliyatining pasayishi davlat byudjeti tushumlarining kamayishiga ham olib keladi hamda bozorda raqobatning susayishi inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin.

1-jadval

Kichik biznes rivojlanishidagi muammolar va ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri¹

Moliyaviy resurslarga kirish cheklanganligi	Kredit olish qiyin, garov yetishmaydi	Investitsiya hajmi kamayadi	Iqtisodiy o'sish sekinlashadi
Yuqori stavkalar	foiz	Kreditlar 18–36% (ba'zida 60%)	Xarajatlar oshadi, narxlar ko'tariladi
Moliyaviy savodxonlik pastligi	Biznes hisobot qiyin	reja va yuritish	Resurslardan samarasiz foydalanish
Byurokratik to'siqlar	Litsenziya ruxsatnomalar ko'pligi	va	Bozorga kirish qiyinlashadi
Infratuzilma muammolari	Elektr, muammolari	logistika	Ishlab chiqarish uziladi
			Hududiy nomutanosiblik kuchayadi

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

Kreditlash tizimi kamchiliklari	Uzoq va murakkab jarayonlar	Tadbirkorlik faolligi kamayadi	Bandlik pasayadi	darajasi
--	-----------------------------	--------------------------------	------------------	----------

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolar nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga, balki butun makroiqtisodiy tizimga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi va yuqori foiz stavkalari investitsiya faolligini pasaytirib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shuningdek, infratuzilma va institutsional muammolar hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish nomutanosibligini kuchaytiradi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda qo'shimcha xavflarni yuzaga keltiradi.

Xalqaro baholashlarga ko'ra, O'zbekistonda biznesni boshlash jarayoni soddalashtirilgan bo'lsa-da, biznesni tugatish va bankrotlik jarayonlarining murakkabligi hali ham saqlanib qolmoqda. Bu esa iqtisodiy resurslarning samarali qayta taqsimlanishini cheklab, investitsion faollikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi mavjud muammolar makroiqtisodiy barqarorlikka kompleks ta'sir ko'rsatib, bandlik darajasining pasayishi, aholi daromadlarining qisqarishi, hududiy rivojlanish nomutanosibligining kuchayishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib kelmoqda. Shu sababli, mazkur muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish kichik biznesni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillarni aniq ma'lumotlar bilan asoslash maqsadida, O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kreditlar foiz stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kreditlar foiz stavkalari²

Bank nomi	Kredit turi	Foiz stavkasi	Kredit shartlari
Hamkorbank	Asosiy vositalar uchun kredit	22-26%	6 oygacha: 22-23% 6-18 oy: 23-25% 18 oydan yuqori: 24-26%
Anor Bank	"Credex"	36% (60% gacha)	Onlayn kredit
Turonbank	Mikrokredit	28-33%	Riskga bog'liq
SQB Bank	"Yosh tadbirkor"	~18%	Imtiyozli
Trastbank	Biznes kreditlari	23-27%	100 mln - 2 mlrd
Aloqabank	Yoshlar krediti	~18%	7 yilgacha

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kredit foiz stavkalari asosan 18-36 foiz oralig'ida shakllanib, ayrim hollarda 60 foizgacha yetmoqda. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun

² Manba: Tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

moliyaviy yukni oshirib, ularning investitsion faolligini pasaytiradi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

III. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muammolarni bartaraf etish yo'llari va ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida tahlil qilingan muammolar -moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta'minoti bilan bog'liq talablar, moliyaviy savodxonlikning pastligi hamda byurokratik to'siqlar - kompleks yondashuv asosida hal etilishi zarur. Avvalo, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit foiz stavkalarining 18-36% oralig'ida shakllanishi tadbirkorlik faoliyatiga sezilarli moliyaviy yuk keltirmoqda. Shu sababli, davlat tomonidan imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish, foiz stavkalarini subsidiyalash hamda kichik biznes uchun alohida moliyaviy instrumentlarni joriy etish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, garov ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal etish maqsadida muqobil mexanizmlarni rivojlantirish muhimdir. Xususan, kafillik jamg'armalari, kredit sug'urtasi tizimi va garovsiz kreditlash amaliyotini kengaytirish kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy imkoniyatlarni sezilarli darajada oshiradi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlarning biznes-reja tuzish, moliyaviy hisobot yuritish va kredit shartlarini tahlil qilish bo'yicha bilimlarini oshirish orqali ularning moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilash mumkin. Bu esa kreditlardan samarali foydalanish va biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hujjatlar sonini qisqartirish, onlayn kreditlash tizimlarini rivojlantirish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratadi. Biznes yuritish muhiti bilan bog'liq muammolarni kamaytirish ham zarur. Qonunchilikdagi murakkabliklarni bartaraf etish, ortiqcha ruxsatnomalar va litsenziyalarni qisqartirish hamda davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada erkinlashtirish mumkin.

Infratuzilmani rivojlantirish ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biridir. Elektr energiyasi, transport va logistika tizimidagi muammolarni hal etish orqali ayniqsa hududlarda biznes faolligini oshirish mumkin. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, kichik biznesning rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi, bu esa aholi daromadlarining oshishiga va ichki iste'mol talabining kengayishiga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi.

Kichik biznesning rivojlanishi davlat byudjetiga tushumlarning oshishiga olib kelib, fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi. Bozorda raqobat muhitining kuchayishi esa narxlarning barqarorlashuviga va inflyatsion bosimning pasayishiga yordam beradi.

Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Hududlar kesimida teng sharoitlar yaratish orqali iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.

Xulosa

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lib, uning rivojlanishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, mazkur sohada mavjud bo'lgan moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi hamda byurokratik to'siqlar ushbu sektorning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Kichik biznes subyektlarining investitsiya imkoniyatlarini qisqartirib, ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi hamda bandlik va iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirib, umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka xavf tug'diradi. Shu sababli, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xususan, imtiyozli kreditlash tizimini kengaytirish, foiz stavkalarini pasaytirish, garovsiz kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va biznes muhitini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralar kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlab, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, aholi daromadlarining oshishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashishiga xizmat qiladi. Natijada mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni. "Iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
3. Zaxidov G., Asqarova M., Djumayev Z. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. – T., 2019. – 290 bet.
4. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving Access to Finance for SMEs. – Washington DC, 2023.
5. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs Report. – Paris, 2023.
6. Asian Development Bank. Asian Development Outlook. – Manila, 2024.
7. B.T. Salimov, M.T. Asqarova va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
8. Small Business Administration. Small Business Development Centers Report. – USA, 2024.
9. SCORE. Mentorship and Training for Small Business. – USA, 2023.
10. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi
11. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi